

TA'LIM –TARBIYA MUASSASALARIDA AXBOROT-KUTUBXONA ISHLARINI TASHKIL ETISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

SPIRITUAL AND ETHICAL ASPECTS OF ORGANIZING INFORMATION-LIBRARY WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ravshanova Gulchera Maxammatovna¹¹Ravshanova Gulchera Maxammatovna

– Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotasiya

Maqolada axborot hurujlari shaxsga muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, asl maqsadi normal ta'sir bo'lishini nazarda tutgan siyosiy - ijtimoiy guruhlarning g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi, shu bois, xavfsizlik choralarini ko'rish ham turli sohalarida va turli jabhalarda amalga oshirilmoqda. Yoshlarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish, milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalashga undash maktab axborot-kutubxonasining muhim vazifalaridan biri hisoblanishi tahlil etilgan.

Аннотация

В статье информационные атаки представляют собой воздействие, направленное на человека, конкретную организацию и государство, и исходят из злонамеренных намерений политических и социальных групп, изначальной целью которых является нормальное воздействие, поэтому меры безопасности реализуются по разным направлениям. и на разных фронтах. Анализируется, что одной из важных задач школьной библиотеки является воодушевление молодежи на труд на благо общества, побуждение к развитию в ней чувства национального единства, гордости, солидарности и сотрудничества, уважения к разным народам.

Abstract

In the article, information attacks are an influence directed at a person, a specific organization and the state, and originate from the malicious intentions of political and social groups, whose original goal is normal influence, therefore, security measures are being implemented in different areas and on different fronts. It is analyzed that one of the important tasks of the school library is to inspire young people to work for the benefit of the society, to encourage them to develop feelings of national unity, pride, solidarity and cooperation, respect for different peoples.

Kalit so'zlar: Axborot, axborot xurujlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri, ta'lim-tarbiya muassasalarida kutubxona tizimi, axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi", "Ezgulik va muqaddas kitoblar", Ma'naviy-axloqiy tarbiya-kasbiy barkamollik asosidir.

Ключевые слова: Информация, влияние информационных атак на воспитание молодежи, библиотечная система в образовательных учреждениях, нравственные категории и воспитание совершенного поколения, «Добродетель и священные книги», Духовно-нравственное воспитание – основа профессионального образования. совершенство.

Key words: Information, the impact of information attacks on the education of young people, the library system in educational institutions, moral categories and the education of a perfect generation, "Virtue and holy books", Spiritual and moral education is the basis of professional perfection.

KIRISH

Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishda barkamol avlodni-komil inson etib tarbiyalash muhim vazifadir. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning namoyon bo'lishi har qachongidan shiddatli tus olayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Milliy merosimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi tufayli odamlar ongida, tafakkurida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka, o'z kuchiga, o'z imkoniyatiga ishonch, Vatanga muhabbat, erkinlik, hissini tarbiyalamoqda. Faqat istiqloq xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin his etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi va u keng ko'lamdagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda asosiy kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda. "Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo'lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq ilmiy axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini, shuningdek,

axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda"[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axborot-kutubxona ishlarini tashkil etish hamda kutubxona faoliyati asosida tizimlashtirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, V.N.Zbarovskaya, V.Yu. Kramarenko, V.S.Kreidenko, N.V.Ogursova, Yu.M.Tugov Matlina, S.G. Yo'ldoshev, E. Oxunjonov kabi olimlarning tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan.

Bulardan tashqari bir qator olimlarimizning maqolalarida, anjumanlarda qilgan ma'ruzalarida ma'naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta'sir qiluvchi tizim, yoki ma'naviyat-insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlari yig'indisi sifatida baholanmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugun ulg'ayayotgan yoshlar ertaga mamlakatning ishonchli tayanchiga, xalqimizning asosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijodiy, intellektual kuchiga aylanadi. Shunday ekan ularning dunyo qarashi, tafakkuri qay darajada ilg'or bo'lishi, hozirgi davrning yuksak talablarini o'ziga mo'ljal qili bolish, shunga intilish salohiyati mamlakatimiz istiqbolini, millatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini belgilab beradi. Bugungi voqelik, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklari ila tubdan yangicha idrok etish, yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mezonlarda baholashni talab etmoqda. Shu bois yangi jamiyat barpo etish jarayonida insonga va jamiyatga, butun borliqqa munosabatni o'zgartirish, ijtimoiy ongni yangilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyos. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish, o'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish ham kerak. Ularni o'qishga majburlash emas, balki kitob o'qishga havas uyg'otish lozim. Bu borada ota-ona, ustoz-u murabbiylar va kutubxona xodimlari bevosita yordam berishlari lozim bo'ladi. Bunda bolalarning yosh xususiyati, qiziqishi hisobga olinishi kerak.

Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida sharq allomalari bir qator pedagogik-psixologik g'oyalarini yaratgan.

Jumladan, "Abu Nasr Farobiyning insonparvarlik g'oyasi uning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga elituvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga elitish, har qanday davlat, jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor" [2] deb ta'kidlasa, Abu Rayhon Beruniy esa muruvvat va futuvvatni eng yaxshi insoniy fazilat deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, muruvvatli kishi o'z qobiliyati xushmuomalaligi, shafqatliliigi, qat'iyatliligi, chidam, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan komil inson sifatida ajralib turadi deydi. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir [3].

Yoshlarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish, milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalashga undash maktab kutubxonasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish, axloqiy madaniyat egasi bo'lishiga, bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Kutubxonachilar darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Har bir kutubxonachi o'quvchi-yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. o'quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;
2. mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
3. atrof-dagi kishilarga axloqiy munosabat.
4. shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

O'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda tadbirlarni ijodiy, noan'anaviy suhbat, o'yin, bahs-munozara uchrashuvlar shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar mazmun jihatdan rang-barang bo'lishi mumkin ya'ni hikoya, tushuntirish, kitob ko'rgazmalari, brifinglar, davra suhbatlari.

Quyidagi mavzu va yo'nalishlarda davra suhbatlari va kitob ko'rgazmalari tashkil etish va uyushtirish mumkin. "Ma'naviyatimizning buyuk timsollari", "Jadidchilik harakati namoyondalari", "ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni", "Mehr va muruvvat ulug' insoniy qadriyat", "Axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi", "Ezgulik va muqaddas kitoblar", "Ma'naviy-axloqiy tarbiya-kasbiy barkamollik asosidir" va shu kabilar.

XULOSA

O'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotni ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy axloqiy mavzulardagi munozaralar o'quvchilarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, aynichog'da o'z holatlarini tan olishga o'rgatadi.

Hozirda yoshlarda yuksak ma'naviyatni tarbiyalash barcha tarixiy-madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarini yaratgan buyuk siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarini o'rganish, ularga hurmat-izzatda bo'lishni, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi // <https://lex.uz/docs/-4372449>
2. Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T.: 2003. -178 bet
3. Abu Rayhon Beruniy. Feruza.- T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993 y. 32-bet.
4. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovi. Ilk uyg'onish davrida – komil insonni shakllantirish vatarbiyalashda tasavvuf ta'limotining o'rni // Scientific Bulletin of NamSU-Nauchnyy vestnik NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-son -B.229.
5. Shodiyev J.J. Mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari // Qardu xabarlar. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Maxsus son (Ijtimoiy fanlar).
6. Jurakulovich, Shodiev Jahongir. "AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.10 (2022): 1160-1164.
7. Jurakulovich S. J. ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 43-47.
8. Shodiyev J. O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TPANSFORMATSIYA SIYOSATI // *Academic research in educational sciences*. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 409-416.